XALQ DEPUTATLARI VOBKENT TUMANI KENGASHINING
Q A R O R I

200300, Vobkent tumani, Imom Buxoriy ko'chasi 55-uy, tel: (65) 33-22-131

2021 - yil 30 - dekabr VI-53-133-2-33-K/21 Vobkent tuman hokimligi

Xalq deputatlari Vobkent tumani Kengashining 2021 yil 30 noyabrdagi "Vobkent tumani bo'yicha 2022 yil uchun jismoniy va yuridik shaxslarning er solig'i stavkalarini tasdiqlash to'g'risida"gi VI-50-105-2-33-K/21-sonli qaroriga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksining 429 va 437-moddalari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 3 dekabrdagi "Resurs soliqlari va mol-mulk solig'ini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi PF-6121-sonli Farmoni, Buxoro viloyati hokimligi moliya bosh boshqarmasining 2021 yil 12 noyabrdagi 01/06/20-02-38/67-sonli hamda viloyat davlat soliq boshqarmasining 19/10-76108-sonli qo'shma xatlariga asosan Vobkent tumani bo'yicha yuridik shaxslarning qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yerlari va jismoniy shaxslar uchun belgilangan yer soliqlarining 2022 yil uchun soliq stavkalarini tartibga solish maqsadida, xalq deputatlari Vobkent tuman Kengashi

Q A R O R Q I L A D I:

1. Buxoro viloyati hokimligi moliya bosh boshqarmasining 2021 yil 12 noyabrdagi №01/06/20-02-38/67-sonli hamda viloyat davlat soliq boshqarmasining 19/10-76108-sonli qo'shma xatlariga asosan 2022 yilda Soliq kodeksida Vobkent tumani bo'yicha yuridik shaxslarning qishloq xo'jaligida mo'ljallanmagan yerlari bazaviy soliq stavkasi 1 gektar uchun mutlaq miqdori **29,0 mln.so'm** hamda jismoniy shaxslarga 1 kv.m uchun bazaviy soliq stavkasining mutlaq miqdori **270,0 so'm** belgilanganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Tuman hokimligi moliya bo'limi (A.Barotov) hamda tuman davlat soliq inspeksiyasi (O.Muqumov)ning mahalla fuqarolar yig'inlarining iqtisodiy rivojlanganlik darajasi hamda kelgusi yil uchun belgilangan tuman mahalliy budjet

prognozidan kelib chiqib, mahalla fuqarolar yig‘inlari bo‘yicha 2022 yilda yuridik va jismoniy shaxslarning bazaviy yer solig‘i stavkalarining mutlaq miqdorlariga nisbatan kamaytiriluvchi va oshiriluvchi koeffitsiyentlarni qo‘llash bo‘yicha takliflari inobatga olinsin.

3. Tumandagi mahalla fuqarolar yig‘inlarining iqtisodiy salohiyati va rivojlanishiga qarab, qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallanmagan yerlar uchun yuridik shaxslar bo‘yicha 2022 yilda Vobkent tumani uchun mutloq miqdorda belgilangan yer solig‘ining bazaviy soliq stavkalariga qo‘llaniladigan koeffitsiyentlar miqdorlari 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Tumandagi mahalla fuqarolar yig‘inlarining iqtisodiy salohiyati va rivojlanishiga qarab, Jismoniy shaxslar bo‘yicha (dehqon xo‘jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlardan tashqari) 2022 yilda Vobkent tumani uchun mutloq miqdorda 1 kv.m. uchun belgilangan bazaviy soliq stavkalariga qo‘llaniladigan koeffitsiyentlar miqdorlari 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

5. Xalq deputatlari Vobkent tumani Kengashining 2021 yil 30 noyabrdagi “Vobkent tumani bo‘yicha 2022 yil uchun jismoniy va yuridik shaxslarning yer solig‘i stavkalarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi VI-50-105-2-33-K/21-sonli qarori bilan tasdiqlangan 1 va 2 ilovalariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilganligi sababli o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

6. Xalq deputatlari tuman Kengashi tomonidan tumanning mahalliy budjet prognoz ko‘rsatgichlarini inobatga olib, 1 va 2-ilovalarga asosan qo‘llaniladigan koeffitsiyentlarga nisbatan tuman hududida joylashgan mahallalar kesimida 0,7 dan 3,0 miqdorda kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlarni belgilash huquqiga ega.

7. Xalq deputatlari tuman Kengashi kotibiyati tomonidan tuman hududida joylashgan mahallalar kesimida yuridik va jismoniy shaxslar uchun 2022 yilda belgilangan soliq stavkalarini joriy yilning 31 dekabr kuniga qadar tumandagi soliq organiga taqdim etilishini ta’minlasin.

8. Tuman hokimligi apparati matbuot xizmati (Sh.Sharopov), “Vobkent hayoti” tuman gazetasi tahririyati (O‘.Istatov) ushbu qaror bilan ma’qullangan Vobkent tumani bo‘yicha 2022 yil uchun jismoniy va yuridik shaxslarning yer solig‘i stavkalarini “Vobkent hayoti” tuman gazetasida hamda tuman hokimligining rasmiy web-saytida e’lon qilsin.

9. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish bo‘yicha doimiy komissiyasi zimmasiga yuklatilsin hamda tuman hokimligi zimmasiga yuklatilsin.

10. Ushbu qaror 2022 yil 1 yanvardan e’tiboran kuchga kiradi.

Kengash raisi **F.Umarov**

Халқ депутатлари Вобкент туман
Кенгашининг
2021 йил 30 декабрдаги
VI-53-133-2-33-K/21-сон қарорига
1-илова

Qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallanmagan yerlar uchun yuridik shaxslar bo‘yicha 2022 yilda Vobkent tumani uchun mutloq miqdorda belgilangan yer solig‘ining bazaviy soliq stavkalariga qo‘llaniladigan koeffitsiyentlar

MIQDORLARI

T.R	MFY nomi	Yuridik shaxslarning qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlari uchun yer solig‘i stavkasi 2022 yil uchun	
		Koeffitsent miqdori	Soliq Summasi (1 gektar uchun, so‘mda)
1	Latifsobungar MFY	1,20	34 800 000
2	Shakarkent MFY	1,20	34 800 000
3	Niyozxo‘ja MFY	1,20	34 800 000
4	Shohnigor MFY	0,80	23 200 000
5	Chorbog‘kent MFY	1,00	29 000 000
6	Shirin MFY	1,00	29 000 000
7	Qo‘qin MFY	1,00	29 000 000
8	Guliston MFY	1,00	29 000 000
9	Arabxona MFY	1,00	29 000 000
10	Kosari MFY	1,00	29 000 000
11	Mo‘minobod MFY	1,20	34 800 000
12	Beshrabod MFY	1,00	29 000 000
13	Hajuvon MFY	1,00	29 000 000
14	Mirvoshi MFY	1,00	29 000 000
15	Changaron MFY	1,00	29 000 000
16	Cho‘rikalon MFY	1,00	29 000 000
17	So‘fidehqon MFY	1,00	29 000 000
18	G‘aribshoh MFY	0,80	23 200 000
19	Ko‘lxatib MFY	1,00	29 000 000
20	Teraklik MFY	0,80	23 200 000
21	Rozmoz MFY	0,80	23 200 000
22	Xo‘jarabod MFY	1,00	29 000 000
23	Sariosiyo MFY	0,80	23 200 000
24	Kumushkent MFY	1,00	29 000 000
25	Bozorjoyi MFY	1,00	29 000 000
26	Anjirbog‘ MFY	1,00	29 000 000
27	Ko‘lodina MFY	1,00	29 000 000

28	Xayrabod MFY	0,80	23 200 000
29	O‘zbakon MFy	0,80	23 200 000
30	Shanba MFY	0,80	23 200 000
31	Qatag‘an MFY	0,80	23 200 000
32	Ponob MFY	1,00	29 000 000
33	Nayman MFY	0,80	23 200 000
34	Xayrxush MFY	0,80	23 200 000
35	Xalach MFY	1,00	29 000 000
36	Diyor MFY	0,80	23 200 000
37	Vobkent MFY	1,20	34 800 000
38	Charmgaron MFY	1,20	34 800 000
39	Shifokor MFY	1,20	34 800 000
40	Do‘stlik MFY	1,20	34 800 000
41	Istiqlol MFY	1,20	34 800 000
42	Kulolchi MFY	1,20	34 800 000
43	Rabotoxun MFy	1,20	34 800 000
44	Quruvchi MFY	1,20	34 800 000

Халқ депутатлари Вобкент туман
Кенгашининг
2021 йил 30 декабрдаги
VI-53-133-2-33-K/21-сон қарорига
2-илова

Jismoniy shaxslar bo‘yicha (dehqon xo‘jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlardan tashqari) 2022 yilda Vobkent tumani uchun mutloq miqdorda 1 kv.m. uchun belgilangan bazaviy soliq stavkalariga qo‘llaniladigan koeffitsiyentlar

MIQDORLARI

T.R	MFY nomi	Jismoniy shaxslar uchun yer solig‘i stavkasi 2022 yil uchun	
		Koeffitsent miqdori	Soliq summasi (1 kv.m uchun, so‘mda)
1	Latifsobungar MFY	1,20	324
2	Shakarkent MFY	1,20	324
3	Niyozxo‘ja MFY	1,20	324
4	Shohnigor MFY	0,80	216
5	Chorbog‘kent MFY	1,00	270
6	Shirin MFY	1,00	270
7	Qo‘qin MFY	1,00	270
8	Guliston MFY	1,00	270
9	Arabxona MFY	1,00	270
10	Kosari MFY	1,00	270
11	Mo‘minobod MFY	1,20	324
12	Beshrabod MFY	1,00	270
13	Hajuvon MFY	1,00	270
14	Mirvoshi MFY	1,00	270
15	Changaron MFY	1,00	270
16	Cho‘rikalon MFY	1,00	270
17	So‘fidehqon MFY	1,00	270
18	G‘aribshoh MFY	0,80	216
19	Ko‘lxatib MFY	1,00	270
20	Teraklik MFY	0,80	216
21	Rozmoz MFY	0,80	216
22	Xo‘jarabod MFY	1,00	270
23	Sariosiyo MFY	0,80	216
24	Kumushkent MFY	1,00	270
25	Bozorjoyi MFY	1,00	270
26	Anjirbog‘ MFY	1,00	270
27	Ko‘lodina MFY	1,00	270
28	Xayrabod MFY	0,80	216

29	O‘zbakon MFy	0,80	216
30	Shanba MFY	0,80	216
31	Qatag‘an MFY	0,80	216
32	Ponob MFY	1,00	270
33	Nayman MFY	0,80	216
34	Xayrxush MFY	0,80	216
35	Xalach MFY	1,00	270
36	Diyor MFY	0,80	216
37	Vobkent MFY	1,20	324
38	Charmgaron MFY	1,20	324
39	Shifokor MFY	1,20	324
40	Do‘stlik MFY	1,20	324
41	Istiqlol MFY	1,20	324
42	Kulolchi MFY	1,20	324
43	Rabotoxun MFy	1,20	324
44	Quruvchi MFY	1,20	324